

## Yil sarhisobi-2018

✘ 2018-yil 25- may kuni “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakultetidagi barcha guruhlar o’rtasida tashkil qilingan “Yilning eng yaxshi guruhi” tanlovining yakuniy bosqichi hamda fakultet Yoshlar ittifoqi faoliyati sarhisobiga bag’ishlangan tadbir o’tkazildi.

Tadbirni ochib berish uchun fakultet dekani O. Kucharov so’zga chiqqach, 2017-2018 o’quv yili davomida “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti yoshlar kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan HISOBOT VIDEOROLIGI taqdim qilindi.

Bundan so’ng “Yilning eng yaxshi guruhi” tanlovining 5 - sharti ishtirokchilariga navbat berildi.

“Eng yaxshi guruh(superguruh)” tanlovi fakultetdagi barcha guruhlariga o’zini serqirra qobiliyatlarini ko’rsatish imkonini beradi. Tanlov shartlari o’zgacha usulda bo’lib, talabalarni “Yoshlar ittifoqi”ning faol a’zosi, namunali talaba, tashkilotchi, bilimdon, dunyoqarashi keng va sog’lom fikrli bo’lishga chorlaydi va ana shunday har sohada ilg’or yoshlarni sinovdan o’tkazadi.

Ushbu tanlovning quyidagi 4 ta shartida fakultetning 43% talabasi tahsil olayotgan 14ta guruhi ✘ o’zaro bellashdilar.

Birinchi shartda guruh mazkur o’quv yilida erishgan yutuqlari ishchi guruh tomonidan belgilangan kategoriyalar orqali baholanadi.

So’ng esa guruh talabalarining o’rtacha o’zlashtirish hamda davomad ko’rsatkichi baholanadi.

Uchinchi shartda ishtirokchi guruhning sur’atlari fakultetning qariyb 80%ini qamrab olgan telegram kanalida ovozga qo’yildi

To’rtinchi shart esa jamoalar MUNOZARA-DEBAT o’yinlarida ishtirok etishdi.

Kuni kecha ushbu tanlovning beshinchi sharti, ya’ni TANISH TIRUV sharti bo’lib, ungacha yetib kelgan kuchli to’rtlik jamoalar guruhini ko’rgazmali tarzda namoyish etishdi va guruh tayyorlab kelgan devoriy gazetaga ta’rif berib o’tishdi.

Natijalarga ko’ra, “Status” jamoasi faxrli uchinchi o’rinni, “Kelajak iqtisodchilari” jamoasi faxrli ikkinchi o’rinni, “Auditorlar” jamoasi esa faxrli uchinchi o’rinni qo’lga kiritishdi. G’oliblar va sovrindorlar diplom va qimmatbaho sovg’alar bilan taqdirlandilar! Bunda yaqindan ko’mak bergan fakultet dekanatiga o’z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Shuningdek, institut miqyosida voleybol bo’yicha birinchilikni qo’lga kiritgan jamoa a’zolari, 20-may kunida tashkil qilingan Xayriya tadbiri tashkilotchilari faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

**“Iqtisod va menejment” fakultetining Yoshlar ittifoqi boshlang’ich tashkiloti**

**yetakchisi Muxlisaxon Raxmatova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**